

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон  
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,  
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик  
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия  
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-1/4  
Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2024**

**МУНДАРИЖА  
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Abdurashidova N.A.</b> Determining the development of fiction through its main stages of development	5
<b>Akhmedova S.H., Mizrobova V.R.</b> The problem of gender characteristics in modern language and discourse	8
<b>Akhmedova S.H., Shokulova L.B.</b> Lexical semantic analysis of virtual communication in english written discourse	10
<b>Allayarova G.N.</b> Ingliz va o'zbek tillarida harakat yo'nalishini ifodalovchi vositalarning leksik-semantik va funksional tahlili	12
<b>Alimova K.M.</b> Kampus romani jann sifatida: shakllanish tarixi	14
<b>Artikova D.A.</b> O'zbek tilida fitonimlarning lingvistik xususiyatlari	17
<b>Axmedova M.M.</b> O'zbek va rus tarixiy nasr janrlarining pragmatik xususiyatlariga doir	19
<b>Axmedova S.H., Rakhimova N.B.</b> Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida stereotiplarning pragmatik tahlili	23
<b>Bekbergenov H.U.</b> Abstrakt otlarning kognitiv ta'rifi	25
<b>Bobojonova N.J.</b> Murojaat kategoriyasining tuzilishi va uni ifodalovchi leksik biriklarining kognitiv mazmuni	28
<b>Boboyorova M.R.</b> Jane Austen and her influence on society	30
<b>Boltayeva N.R.</b> The basic concepts and factors of political discourse	34
<b>Burxonova G.</b> O'zbek va rus tillarida agrar terminlarning o'zaro tarjimasi va leksikografik talqini	38
<b>Djabbarova K.A.</b> Cognitive mechanism of hyperbole in the english language	40
<b>Do'smatov S.T.</b> Badi` az-Zamon al-Hamadoniy va uning maqomalari	42
<b>Dustmamatova N.P.</b> Graduonimiya va unga yondosh tushunchalar tavsifi	45
<b>Egamberdiyeva M.G'.</b> Madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiketning antoposentrik paradigmasi	48
<b>Gadayshaev B.A.</b> Ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillaridan o'zlashgan harbiy va ijtimoiy so'zlarning o'zbek va rus tilshunosligidagi o'rni	51
<b>Gafurova G.B.</b> Publisistik uslubdagi matnlar elektron tarjimasini funksional pragmatik muvofiqligi	53
<b>Gulyamova M.A.</b> Xalqaro ekologik tashkilotlarning jamoatchilik bilan aloqalari mexanizmlari	56
<b>Jalilova L., Ergasheva F.</b> The pearls of irony in Ernest Hemingway's novel "The sun also rises"	58
<b>Jumaniyozova S.Sh.</b> Ingliz frazeologizmlarida tarixiy xotiraning aks etishi	61
<b>Haydarov A.A., Barinova M.</b> So'zlararo ma'noviy munosabat turlari	63
<b>Haydarov A.A., Yadgorova M.</b> Inson tuyg'ulari ifodalanishining konseptual-chog'ishtirma tadqiqi	67
<b>Khidirova M.A., Temirova M.A.</b> Linguocultural analysis of animal names in english and uzbek languages	69
<b>Kobilova A.B., Akhmedova M.</b> Political discourse and periphrases used in this field	72
<b>Kobilova A.B., Ruziyeva D.</b> Advertising as a special type of text	75
<b>Kudratov A.A.</b> O'zbekistonda tarjima jarayoni	78
<b>Masharipova Yu.O.</b> Linguocultural analysis of the uzbek culture cradle named beshik	82
<b>Maxmudova N.M.</b> Ispan tilida quvonchni ifodalovchi so'zlarning tasnifi	85
<b>Maxmudova Sh.M.</b> The role of common phrasal verbs to organize more effective ESL classes	87
<b>Nematova I.</b> Reklama matnlaridagi imperativnin qo'llanilishining o'ziga xos jihatlari	91
<b>Odilova G., Xamidova M.</b> Olam milliy lisoniy manzarasida glyuttonik diskursning o'rni	93
<b>Qo'ymuradova G.M.</b> Holat fe'llarini tahlil qilishda assotsiativ metoddan foydalanish	99
<b>Qurbanova F. A.</b> Mifologik tafakkur va ijodkor badiiy olami	101
<b>Qurbanova G.A.</b> Qadimgi ingliz gidronimlarining kelib chiqish tarixi va yasalishi	104
<b>Raximboyeva S.F.</b> Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanida bolalar ruhiyatining ifodalanishi	107
<b>Rustamov I.T., Amirova N.B.</b> Anekdot janrining diaxronik-sinxronik tahlili	109
<b>Sabirova N.E.</b> Poetik ramzlar genezisi va o'ziga xos xususiyatlari	113
<b>Safarova Z.T., Narzulloyeva M.N.</b> Ch.Dikkensning "Dombi va o'g'li" asarida bola obrazining ifodalanishi	116
<b>Safarova Z.T., Saidova D.B.</b> Ingliz tarbiya romanlarida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar obrazlari tahlili	119
<b>Safoyeva S.</b> Tilshunoslikda pragmatik belgilarini tadqiq qilish	121

6. Buckley J.H. Season of Youth: The Bildungsromane from Dickens to Golding. – Harvard: Harvard University Press, 1974. – 352 p.
7. Tolibovna, S. Z. (2023). Expression of orphans’ life through the theme of “hunger” in bildungsromans.
8. Safarova, Z. (2023). Education in sharlotte bronte’s “jeyn eyte”. центр научных публикаций (buxdu. uz), 32(32).
9. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – 464 с.
10. Tolibovna, S. Z. (2023). “Longing” as a main theme in english and Uzbek bildungsromans. Asian Journal Of Multidimensional Research, 12(8), 11-15.
11. <https://thevirtuallibrary.org/>

**UO’K 808.5**

**INGLIZ TARBIYA ROMANLARIDA TARBIYACHI VA TARBIYALANUVCHILAR  
OBRAZLARI TAHLLILI**

**Z.T.Safarova, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro**

**D.B.Saidova, magistrant, Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti, Buxoro**

**Annotatsiya.** Obraz badiiy adabiyotning eng muhim unsurlaridan biri bo‘lib, yozuvchi real voqelikni ifodalashda obrazga tayanadi. Yaratilgan asar janriy xususiyatiga ko‘ra bir qator obrazlar tizimi yuzaga keladi. Shu jumladan, tarbiya romanlarida ham tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar obrazlaridan ko‘proq foydalaniladi. Bu obrazlar ko‘proq tanlanishiga sabab, tarbiya romanlarida asosan yetim bolalar bosh qahramon sifatida tanlanadi va ularning tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lgan obrazlarni yaratishga ehtiyoj tug‘iladi.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiya romanlari, obraz, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, qahramon, motiv, janr.

**Аннотация.** Образ - один из важнейших элементов художественного произведения, и писатель использует его для выражения действительности. В зависимости от жанра создаваемого произведения появляется система образов. В романах воспитания чаще используются образы учителей и учеников. Причина, по которой эти персонажи выбираются чаще, заключается в том, что главными героями воспитательных романов выбирают детёнышом, и возникает необходимость создания персонажей, ответственных за их воспитание.

**Ключевые слова:** Учебные романы, образ, педагог, ученик, герой, мотив, жанр.

**Abstract.** Image is one of the most important elements of a literary work, and the writer uses it to express reality. Depending on the genre of the work being created, a system of images appears. In novels of formation (Bildungsromans), images of educators and students are more often used. The reason why these characters are chosen more often is because orphans are chosen as the main characters in Bildungsromans, and there is a need to create characters responsible for raising them.

**Keywords:** Novels of formation, image, teacher, student, hero, motive, genre.

Ma’lumki, badiiy asarda hayot obrazlar yordamida aks ettiriladi. Muallif o‘zi yaratgan obraz vositasida hayotiy kuzatishlariga asoslangan voqe-hodisalarni qayta tiklaydi. Prof. L.I.Timofeyevning ta’rificha, “obraz – to‘qima yordami bilan yaratilgan va estetik kiymat kasb etgan inson xayotining umumlashma va, ayni choqda, konkret manzarasidir.”[2,62-63]

Tolstoyning fikricha, adabiyotda ma’lum bir tip yaratish uchun shu toifadagi juda ko‘p kishilarga xos xususiyatlarni tanlab olib, badiiy bir butunlikka jamlash kerak.[1, 52-53] Shuning uchun asar qahramoni hayotdagi kishilarga juda o‘xshab ketsa-da, aynan ularning o‘zi bo‘la olmaydi. Chunki, obraz umumlashma mahsuli bo‘ladi. Bu haqda N.G. Chernishevskiy “San’atning voqelikka estetik munosabatlari” asarida shunday yozadi: “Yozuvchi ko‘pgina individual shaxslarni kuzatadi; bularning hech qaysi tip bo‘lib xizmat qila olmaydi; lekin u har biridan umumiylip tipik xususiyatlarini aniqlaydi; barcha tasodifiy xislatlarni chiqarib tashlab har xil kishilarga xos bo‘lgan xususiyatlarini badiiy bir butunlikka birlashtirish yo‘li bilan xarakter yaratadi.”[1,42-43] Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bir badiiy obraz o‘zida ko‘plab insonlarning xarakter xususiyatlarini aks ettiradi. Muallif o‘z shaxsiy orzu-umidlariga asoslangan jamiyatni tasvirlashni maqsad qilgan bo‘lsa, har tomonlama mukammal, ideal shaxs obrazini shakllantiradi. Bunday shaxs real hayotda uchramaydi, shunchaki, yozuvchi xayolidagi voqelikning in’ikosi hisoblanadi. Bular romantik obrazlar bo‘lib, “Farhod va Shirin”dagi Farhod, “Saddi Iskandariy”dagi Iskandar, “Uch mushketyor”dagi Dartanyan va

boshqalar shular jumlasidandir. Biroq, qahramon oddiy insonlar kabi xato va nuqsonlari, yutuqlari va mag'lubiyatlari, ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlari bilan, hech qanday bo'yoqlarsiz tasvirlansa, realistik obrazlar deyiladi. Realistik obrazlar yozuvchi yashab turgan jamiyatga xos bo'lgan shaxslar xarakter-xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan bo'ladi.

Tarbiya romanlari haqida gap ketar ekan, ular mana shunday hayotiy obrazlar bilan boyitilganini ta'kidlash joiz. Xususan, bu asarlarda bosh qahramon hayotida muhim ahamiyatga ega tarbiyachi obrazlar tizimi ahamiyatlidir. Ma'lumki, tarbiya romanlari bosh qahramoni sifatida aksariyat hollarda ota-onasining biri, yoki ikkisidan ham ayrilgan yetim bola tanlanadi. Bu bola biror qarindoshi qaramog'ida qoladi va shu qarindosh asarda tarbiyachi vazifasini o'taydi. Ingliz yozuvchisi Ch. Dikkens ijodida bunday tarbiyachi obrazlar turli xil qiyofalarda yaratilganining guvohi bo'lamiz. Masalan, Ch.Dikkensning "Katta umidlar" asarida Pip opasi va pochchasi qo'lida katta bo'ladi. Ammo, bu yerda muallif opa obrazini onaning o'rnini bosuvchi mehribon ayol qiyofasida emas, balki, befarzand, shirin so'zlikdan yiroq, qo'pol xarakter sohibasi sifatida tasvirlaydiki, Pip opasi tomonidan doimiy kaltak yeb, mehr ko'rmay o'sadi. U bolaligi haqida eslar ekan: "*My sister, Mrs. Joe Gargery, was more than twenty years older than I, and had established a great reputation with herself and the neighbors because she had brought me up "by hand." Having at that time to find out for myself what the expression meant, and knowing her to have a hard and heavy hand, and to be much in the habit of laying it upon her husband as well as upon me, I supposed that Joe Gargery and I were brought up by hand .*"[4,9] – "Opam, Missis Jo Gerjeri, kaminadan yigirma yoshlar chamasi kattaroq bo'lib, fe'l-atvori hamda meni "o'z qo'li bilan" tarbiya qilgani sababli qo'shnilar nigohida va o'z nazdida o'ta taniqli edi. O'sha vaqtarda ushbu iboraning ma'nosini boshimdan o'tkazib, opamning qo'li qattiq va yugirik ekaniga, uni dam eriga, dam menga yugurtirish odati borligiga ishonch hosil qilib, Jo Gerjeri ikkimiz haqiqatan qo'l tarbiyasini olganimiz"[5,6] – deydi. Bu yerda ingliz tilidagi "by hand" iborasi urish, kaltaklash ma'nolarida ishlataliyapti. Shunday bo'lsa-da, biroz to'pori, lekin ko'ngli bo'sh, sodda pochchasi temirchi Jo uni qo'lidan kelganicha himoya qilar, o'zi bilganicha unga g'amxo'rlik ko'rsatardi. Bu bilan Dikkens Missis Gerjerini salbiy obraz demoqchi emas, shunchaki, u madaniyatsiz, savodsiz, qattiq mehnat qilib kun kechiradigan bir ayolning, tarbiya va g'amxo'rlikni qanday tushunishini ko'rsatib beradi.

"Devid Kopperfild" asarida qattiqqo'l tarbiyachilarning bir necha ko'rinishi mujassam. Devidning o'gay otasi Janob Murdstoun bolalarni sovuqqon va his-tuyg'uga tobe bo'lmagan holda tarbiyalash zarur deb hisoblaydi, bunda qamchi uning uchun eng munosib ko'makchi bo'ladi. Rafiqasiga ham Devidni erkalash, onalik tuyg'ularini ifoda etishni taqiqlaydi. Shavqatsizlarcha jazo choralarini qo'llaganida yuragi umuman achimaydi. Uning bunday munosabatidan hayiqqan Devid, o'zi bilmagan holda yanada ko'proq xato qilib qo'yadi. Onasi bilan dars qilayotganida uning bu qo'rquvi ko'proq namoyon bo'ladi, chunki, Janob Murdstoun va uning opasi ularga tikilib, dakki berishga tayyordek turishlari bolaga ruhan salbiy ta'sir o'tkazadi. Devid ular haqida: "I could have done very well if I had been without Murdstones; but the influence of Murdstones upon me was like the fascination of two snakes on a wretched young bird." [4, 42-43] – "Murdstounlar bo'lmaganida men juda yaxshi uddalagan bo'lardim. Ammo, Murdstounlarning menga ta'siri go'yo ikki ilonning yosh qushga maftun bo'lib turganidek edi." Bu jumladan sezilyaptiki, bu obrazlar Devidning har bir harakatini kuzatib, xato qilsa tashlanishni kutib turgan yirtqichdek tasvirlangan.

Devidning katta ammasi ham aristokratlarcha tartib-intizomga rioxqa qilib, tarbiyaga o'ta jiddiy qaraydi, ammo, uning qattiqqo'lligi ostida ezgu niyatları, mehri, bolaning kelajagi uchun qayg'urayotgani sezilib turadi. Devid uni "the principal magnate of our family" [11,5]– "oilamizning asosiy magnati" deb ataydi. Devid Missis Trotvudning uyiga qochib borganda u o'g'il bolalarni yoqtirmasa-da, Devidni qabul qiladi va obro'li maktablardan biriga joylab qo'yadi. Janob Murdstoun Devidni qaytarishni talab qilib kelganda, bolani unga bermaydi. Bu obraz qiyofasida insofli va mehribon g'arb "ledi"si namoyon bo'ladi. Devid ammasidan haqiqat uchun kurashishni, zolimlardan qo'rqmaslikni o'rganadi. Demak, janob Murstoun va Trotvud xonim qattiqqo'llikning ikki xil ko'rinishini namoyon qilishadi.

"Jeyn Eyr" asarida Jeyn amakisining xotini qo'lida qoladi va "Devid Kopperfild" dagi Janob Murdstoun singari qo'pol va mehrsiz Missis Ridning "tarbiyaviy choraları" bilan birga o'sadi. Bu

## XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI –1/4-2024

ayol ham yetim bolaga nisbatan Missis Murdstoundek, his-tuyg'usiz va qattiqqo'l inson. Ammo, o'z farzandlarini haddan ortiq taltaytirib yuboradi. Ayniqsa, o'g'li Jonni ko'r-ko'rona yaxshi ko'radi, uning zo'ravonligi va axmoqliklariga loqayd qaraydi. Uning xarakterida Viktoriya davri qadriyatlari, ya'ni o'g'il farzandning qizlardan ustun turishi aks etgan.

"Garri Potter" asari qahramoni Garri ota-onasi chaqaloqligidayoq vafot etadi va u xolasining uyida katta bo'ladi. Qahramon bu xonadonda "baxtsiz, ro'shnoliksiz" o'tgan o'n yillik hayotni boshidan kechiradi. Uning hech bir kuni xolasi Putuniya, pochchasi Vernon va o'zi tengi xolavachchasi Dudlining qo'pol munosabati, turkilashlari hamda dakkilarisiz o'tmas edi. Garri Petuniyaning singlisidan qolgan birdan-bir yodgorligi bo'lsa-da, uni ko'rishga ko'zi yo'q edi. Bu yerda opaning singlisiga bo'lgan g'arazi, hasadgo'yligini ko'rish mumkin. Muallif, Dursllar mehmonxonasida osilgan xonodon farzandi Dudlining turli suratlarini tasvirlar ekan, "bu xonadonda yana bir nafar bola yashashidan dalolat beradigan birorta alomat yo'q" [8,25] ligini ta'kidlab o'tadi va bu orqali kitobxon bu uyda Garriga bo'lgan e'tiborsizlik hamda mehrsizlik hukm surishini osonlik bilan anglab yetadi. Petuniya va janob Vernon ham o'z o'g'illari tarbiyasida o'ta ko'nglibo'shlik qilib, "Jeyn Eyr"dagi Rid xonimni esga solishadi.

Ingliz adabiyoti "Tarbiya romanlari" tahlili shuni ko'rsatadiki, bosh qahramon qanday tarbiyachining qo'lida unib-o'smasin, unga qanday munosabatda bo'linmasin, qalbidagi ezgulik o'rnini hech qachon alamzadalik yoki o'ch olish tuyg'usi egallamaydi. Ularning bari samimiyl, ko'ngli pok insonligicha qoladi va yaxshilikning yomonlik ustidan hamisha g'alaba qozonishi motivini tashuvchilar bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бобоев Т. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 287 б.
2. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. – 464 с.
3. Safarova, Z. (2023). Education in sharlotte bronte's "Jeyn Eyre". Центр научных публикаций (buxdu. uz), 32(32).
4. Dickens Ch. Great expectations. Planet Ebook.com. (2008). – Р. 685.
5. Диккенс Ч. Катта умидлар. Ш.Миноваров таржимаси. – Тошкент: Ниҳол, 2017. – Б. 364.
6. Bronte Ch. Jane Eyre. Smith, Elder and Co., Cornhill, Third Edition, 1857. – 539 р.
7. Rouling J.K. Garri Potter va afsonaviy tosh. Sh.Z. Dolimov tarjimasi. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 366 б.
8. Safarova, Z. (2022). A realistic artistic depiction of the lives of orphans in Dickens's novel Oliver Twist. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 13(13).
9. Tolibovna, S. Z. (2023). "Longing" as a main theme in english and Uzbek bildungsromans. Asian Journal Of Multidimensional Research, 12(8), 11-15.
10. Charles Dickens. David Copperfield. – Москва, 1949. – 1307 p.
11. Safarova, Z. (2020). Analysis of orphan images and orphanhood in children's literature. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 1(1).
12. Safarova, Z. (2023). Tarbiya romanlarining badiiy adabiyotdagi genezisi va o'rni. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 40(40).
13. Tolibovna, S. Z. (2023). Expression of orphans' life through the theme of "Hunger" in bildungsromans.

UO'K 81-2

## TILSHUNOSLIKDA PRAGMATIK BELGILARINI TADQIQ QILISH

*S.Safoyeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola pragmatik belgilar sohasini o'rganib chiqib, ularning muhim jihatlari, funksiyalari va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos belgilarini ko'rsatib beradi. Kirish qism pragmatik belgi tasnifini o'z ichiga oladi va ularning muloqotdagi muhim rolini namoyon qiladi. Maqolada pragmatik markerlarning ko'p taraflama funksiyalari tizimli ravishda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, marker, kommunikativ funksiya, semantik mazmun, klassifikatsiya, belgi, konsepsiya, munosabat belgilari, rol, tasnif, shaxslararo aloqa, dinamika.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается область pragматических знаков и показаны их важные аспекты, функции и культурно значимые особенности. Введение включает классификацию pragматических знаков и показывает их важную роль в общении. В статье систематически освещаются многосторонние функции pragматических маркеров.